



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI

**Z.Atamuratov**

Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti  
“Biznesni boshqarish” kafedrası magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonaları raqobatbardoshligini oshirishning ahamiyati va unga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiyotining erkinlashuvi va mahsulot yetishtiruvchilar orasida raqobatning rivojlanishi, ishlab chiqarish korxonaları samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mahsulot raqobatbardoshligi uning sifatiga, narxiga va iste’mol bozoridagi o’rnini belgilovchi ko’rsatkichlarga bog’liq. Tadqiqotda raqobatbardoshlikni oshirishda iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligi, shuningdek, ishlab chiqarish korxonaları uchun kerakli chora-tadbirlar ko’rsatilgan. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun milliy mahsulotlarni ilgari surish, eksportni rivojlantirish va sifatni boshqarish tizimini yaratish kabi strategiyalarni amalga oshirish zarurligi ta’kidlangan.

**Kalit so’zlar:** Raqobatbardoshlik, mahsulot sifati, iqtisodiy omillar, texnologik omillar, ijtimoiy omillar, milliy mahsulotlar, eksport, sifatni boshqarish.

### **Kirish**

Mamlakatimiz iqtisodiyotning erkinlashishi va mahsulot yetishtiruvchilar orasida raqobatning keskin rivojlanib borayotganligi, ishlab chiqarish korxonalarining samarali faoliyati avvalo mahsulot tannarxini pasaytirishi, uning sifatini yaxshilashi va mahsulotlarning iste’mol bozorida samarali sotilishiga bog’liq.

Mahsulot raqobatbardoshligi esa, birinchi navbatda uning sifat ko’rsatkichiga bog’liq. Bozor munosabatlari sharoitida mahsulot sifati deganda, unga iste’molchi nazari bilan yondashish lozim, toki u yetishtirilgan mahsulotlar orasidan o’ziga eng ma’qul bo’lganini tanlab olish imkoniyatiga ega bo’lsin.

Shundan kelib chiqib, ishlab chiqarish korxonalarining mahsulotlari va xom ashyosining raqobatbardoshligini bir necha omillarni hisobga olgan holda ko’rib chiqish lozim:

- iqtisodiy omil, yakuniy mahsulot xarajat va narxdan kelib chiqqan holda;
- texnologik omil, ishlab chiqarishni istiqbolda modernizatsiyalashni hisobga olgan holda;
- ijtimoiy omil, ishlab chiqarish yo’nalishini o’zgartirganda ijtimoiy xarakterga ega bo’lgan xarajatlarni hisobga olgan holda.

Shundan kelib chiqib, ta’kidlanganidek, raqobatbardoshlik deganda iste’molchi uchun ma’qul bo’lgan shu turdagi mamlakat ichkarisida va tashqarisida ishlab chiqilayotgan, iste’molchi uchun

ma'qul bo'lgan mahsulotning bozordagi o'rtacha iste'mol bahosini, sotish vositalari va usullarini, uning iste'mol qiymatini ifodalab beruvchi kompleks ko'rsatkichlari tushuniladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, istiqbolda aholi daromadining ko'payishi va xarid qilish imkoniyatlarini ko'tarilishi mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirishi mumkin ekanligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi davrda iqtisodiyotni globallashtirishni hisobga olgan holda raqobatbardoshlik muammosini ikki yo'nalishda ko'rib chiqish kerak bo'ladi:

1. Mamlakat hududida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini ichki bozorda sotilishini hisobga olgan holda;

2. Mahsulotni eksport qilishni hisobga olgan holda.

Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro bozor narxini, soliq yukining o'zgarishi, transport xarajatlarini hisobga olganda (masalan, texnika-texnologiya, paxta tolasi, meva va sabzavot) mahsulotlar raqobatbardoshligi nisbatan yuqori ekanligi ko'zga tashlanmoqda. Shundan kelib chiqib, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining va xom ashyolarining raqobatbardoshligini ko'tarish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi lozim:

- ishlab chiqarish imkoniyatlarini milliy sanoat asosiga qo'yish, qishloq xo'jaligida ob-havo va iqlim sharoitlariga chidamli yuqori hosilli navlar va ularning gibridlaridan keng miqyosda foydalanish, zotli mollar va yuqori hosilli ekin turlari bo'yicha hududlararo almashishni yo'lga qo'yish, mashina traktor parkini yangi texnikalar bilan mustahkamlash hamda texnika va asbob uskunaga bo'lgan talabni lizing orqali sotib olish xajmini va turlarini kengaytirish;

- milliy mahsulotlarni ulgurji bozor, auktsion, birja kabi yangi kanallar orqali sotish yo'llarini shakllantirish;

- mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini import orqali olib kirishni chegaralash va mahsulot turlari bo'yicha import hajmini chegaralash va ularga kvota belgilash, kvotadan ortiq olib kirilayotgan mahsulot hajmiga bojxona to'lovlar miqdorini oshirish;

- mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'laroq qondirish maqsadida, mahsulotni ishlab chiqarish va qayta ishlash xajmini ko'paytirish uni assortimentini aholi talabiga qarab kengaytirish, sifatini va qadoqlashni yaxshilash;

- import bo'yicha olib kirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini aholi salomatligiga zarar yetkazishini oldini olish maqsadida sifat ko'rsatkichlari bo'yicha qattiq nazorat o'rnatish lozim;

- jahon standartlariga mos keladigan mahsulot sifatini boshqarishni tashkil qilish va oziq-ovqat mahsulotlari hamda xom ashyo sifatini kafolatlaydigan tizimni ishlab chiqish.

Shuni ta'kidlash lozimki, raqobatning o'zi ishlab chiqarish korxonasining malaka bazasini shakllantirishga yetarli emas, uni muntazam ravishda kengaytirib takomillashtirib borish lozim.

Malaka bazasi ishlab chiqarish korxonasini uning innovatsiya holatini yuqori darajada ushlab turish orqali raqobatbardoshligini ko'tarishni ta'minlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, korxonalarda raqobatbardoshlikni ta'minlash jarayonini nazariy jihatdan ikkita davrga bo'lish mumkin:

1-davrda unumdorlik omillarini (inson omili kapitali, yangi bilimlar, axborot, yangi texnologiya va hokozolar) shakllantirish, bu jarayonni shunday olib borish lozimki, uning natijasi unumdorlik yuqori (maksimal) darajada bo'lsin.

2-davr shakllantirilgan unumdorlik omillarini keng miqyosda joriy qilish.

Bugungi ishlab chiqarish asosini xususiy tadbirkorlar tashkil qilayotganini hisobga oladigan bo'lsak, xo'jalik yuritishning shu shakllarini raqobat afzalligini ta'minlashda ularning malaka bazasini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xo‘jalik yuritishning ushbu shakllari malaka bazasi birinchi navbatda yakka tadbirkorlar va xususiy korxonalar rahbarlarining va ularning boshqarish ishlarida ishtirok etayotgan boshqa a‘zolarining bilim darajasi bilan bog‘liq. Shuni ta‘kidlash lozimki, bugungi faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlarning ko‘pchilik qismi oliy ma‘lumotga ega emas. Oliy ma‘lumotga ega bo‘lganlarning ko‘pchilik qismi soha mutaxasisi emas. Shuning uchun ham ularni bilimini oshirish nafaqat tadbirkorlarning mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish, balki umuman shu sohaning iqtisodiyotini ko‘tarishda muhim ahamiyatga ega.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki raqobatbardoshlikni aniqlash uchun mulkka egalikdan tashqari, tashkiliy, iqtisodiy, moddiy-texnik ta‘minot va ijtimoiy sharoitlarga ham e‘tibor berish lozim ekan. Bunga kompaniyalarni birgina mamlakat milliy iqtisodiyotini rivojlanishdagi ishtiroki kifoya qilib qolmasdan, balki boshqa davlatlarda joylashgan transmilliy kompaniyalarning ishtiroki ta‘sir ko‘rsatadi.

Raqobatbardoshlikni oshirishda yagona erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilinishi muhim rol o‘ynaydi. Bunday hududlarning tashkil qilinishi, umumiy bo‘jxona qoidalarini joriy qilinishi hisobiga qo‘shimcha mablag‘ olish, shuningdek, boshqa davlatlar bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkoniyatini ham beradi.

Ammo bir narsaga e‘tibor berishimiz kerakki, yagona erkin iqtisodiy hududning tashkil bo‘lishi milliy standartlarni jahon standartiga moslashtirishni talab qilishi, hamda yetishtirilayotgan mahsulotlar sifat ko‘rsatkichi xalqaro talablarga javob berishi lozimligi, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi zarurligini taqozo qiladi.

Raqobatga asoslangan ichki bozorni shakllantirish va mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, raqobatbardosh korxonalariga investitsiyalar yo‘naltirilishi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bu borada raqobatbardosh mahsulotni va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir korxonalarni tanlab olish va investitsiyalarni shularga yo‘naltirish lozim bo‘ladi. Bundan tashqari yangi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy harakatga javob beradigan va mamlakat korxonalarini modernizatsiya qilish uchun katta hajmdagi kapitalni kirib kelishini ta‘minlaydigan, innovatsion mexanizmni ishga solishga e‘tibor berish kerak bo‘ladi.

Bozor mexanizmidan samarali foydalanishga asoslangan raqobat muhitini yaratish ilmiy asoslangan qator chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu tadbirlar quyidagilardan iborat:

monopolistik holatni rivojlanishini oldini olishga qaratilgan tashkiliy-xuquqiy mexanizmni yaratish;

ilmiy tadqiqot ishlarida xalqaro ilmiy muassasalar bilan aloqalarni mustahkamlash;

xalq xo‘jaligi kompleksini raqobatga asoslangan bozor mexanizmini optimallashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish majmuasining yaxlit iqtisodiy munosabatlar tizimidagi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdagi bundan keyingi samarali rivojlanishi, bizning fikrimizcha marketingga asoslanishi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga va monopol nazoratni olib borishga bog‘liq.

Raqobat afzalligi nazariyasida ishlab chiqarish samaradorligi va raqobat holatiga strategik rejalashtirish, innovatsiya, xodimlarni o‘qitish, bozorni o‘rganish, resurslar tejamkorligini ta‘minlaydigan texnologiyani joriy qilish, axborotga ega bo‘lish va hokozolar orqali erishiladi. Ishlab chiqarish korxonasi bunga erishishi uchun birinchi navbatda, yuqoridagi sanab o‘tilgan omillarni bir yaxlit integrallashgan holatga olib kelishni ta‘minlay oladigan malakali kadrlar bazasiga ega bo‘lishi lozim.

**Xulosa**

Maqolada ishlab chiqarish korxonalarini uchun raqobatbardoshlikni oshirishning ahamiyati ko'rsatilgan. Raqobatbardoshlik nafaqat mahsulot sifatiga, balki iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillarga ham bog'liq. Mahsulotning raqobatbardoshligi bozor talabini qondirish, sifatni yaxshilash va narxlarni arzonlashtirish orqali ishlab chiqaruvchilarning bozor o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlar ochish va eksportni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonlarida malakali kadrlar bazasini shakllantirish va malaka oshirish tizimlarini ishlab chiqish zarur. Jahon bozoriga chiqish uchun yagona erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish va milliy standartlarni xalqaro talablarga moslashtirish muhimdir. Maqola davomida taqdim etilgan chora-tadbirlar ishlab chiqarish korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim yo'nalishlar hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Экономико-математический энциклопедический словарь / Гл.ред.В.И. Данилов-Данилиан. –М.: Большая Российская энциклопедия: Издательский дом «ИНФРА-М», 2003. -688с
2. Ч.Г. Донгак “Повышение конкурентоспособности строительной организации на основе развития ее кадрового потенциала” (автореферат), Санкт-Петербург, 2009г. Стр 6.
3. <http://www.ziyonet.uz> (Ўзбекистон Республикаси ахборот таълим тармоғи расмий сайти)